

---

## IIBda yoshlar uchun «Ochiq eshiklar kuni» tashkil etildi

Rishton tumani IIB boshlig'i podpolkovnik Sh.Mavlonov tashabbusi bilan 3-sektor hududidagi otaliqqa olingan yoshlar va maktab o'quvchilari uchun tuman IIB binosida "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazildi.

O'g'il-qizlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan mazkur tadbirni tuman IIB boshlig'i, 3-sektor rahbari, podpolkovnik Shavkat Mavlonov ochib berdi.

Shu kuni yoshlarga IIB faoliyati, yo'nalishlari, maxsus vositalar, moddiy-texnik bazasi hamda «Vatanparvarlik burchagi» to'g'risida tushuntirishlar berildi.

Ishtirokchilar xodimlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma'lumotlarga ham ega bo'lishdi.

Tadbir davomida o'quvchilar huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, fosh etish, tergov-surishtiruv, ekspert kriminalistika, xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha qilinayotgan ishlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Shuningdek, o'zlarini qiziqtirgan savollarga soha mutaxassislari tomonidan javoblar olishdi.

Tadbir davomida yoshlarga IIB xodimlariga birlashtirilgan maxsus vositalar va jangovor qurollar namoyish qilinib, ularning xususiyatlari to'g'risida batafsil axborot berildi.

2024-04-18 14:58:21